

**“O’zbekinvest” EIMSK sug’urta polislarini Kompaniya veb-sayti orqali online sotish tartibi**

Qadam jarayoni	Mas’ullar	Qadamlar tavsifi
<b>8.1</b>		Agar Kompaniya xodimi (IT foydalanuvchisi) ITda ro’yxatdan o’tsa, 8.2 punktga o’tadi. Agar IT tashrif buyuruvchisi (Arizachi) ITda ro’yxatdan o’tsa, 8.3 punktga o’tadi.
<b>8.2.</b>	IT Administratori	Kompaniya xodimining ITda foydalanuvchi sifatida ro’yxatdan o’tishi Kompaniyaning tegishli hujjati (bo’yruq) asosida amalga oshiriladi.
<b>8.3.</b>	Arizachi	Arizachining o’zi ITda ro’yxatdan o’tadi. Kerakli ma’lumotlar kiritilgach, Arizachiga kodni tasdiqlash uchun sms-xabari keladi.
<b>8.4.</b>	Arizachi	Tanlangan sug’urta turi bo’yicha ariza-anketa to’ldiriladi va sug’urtaning ushbu turi qoidalariga ko’ra kerakli hujjatlarning elektron nusxasi ilova qilinadi.
<b>8.5.</b>	IT Foydalanuvchisi	ITga yangi ariza tushishi bilan IT foydalanuvchisining mobil telefoni va elektron pochta-siga ariza IDsi ko’rsatilgan sms xabar kkeladi. Shundan keyin, jumladan Foydalanuvchi bir kunda ikki martadan ortiq kelib tushgan yangi ariza-anketalarni tekshirish va mavjudlarini qayta ishlash uchun ITga kirib turadi.
<b>8.6.</b>	IT Foydalanuvchisi	Polis tezkor rasmiylashtirish va yetkazib berish maqsadida ariza-anketani hududiy filialga uzatish masalasi ko’rib chiqiladi. Agar boshqa ijrochi tayinlash zarurati bo’lsa, 8.7 punktga o’tiladi.
<b>8.7.</b>	IT Foydalanuvchisi	Hududiy filialdagi IT foydalanuvchisi boshqa ijrochini tayinlashi ham mumkin, masalan, polisni manzilga yetkazib berish yaqin bo’lgan hududiy bo’lim.
<b>8.8.</b>	IT Foydalanuvchisi	Ko’rib chiqilayotgan ariza-anketa statusi “V obrabotke” statusiga o’zgartiriladi. IT Arizasiga avtomatik tarzda bu haqda sms xabar yuboradi.
<b>8.9.</b>	IT Foydalanuvchisi	Foydalanuvchi ariza-anketa va unga ilova qilingan hujjatlarning sug’urta qoidalariga muvofiqligini tekshiradi.
<b>8.10.</b>	IT Foydalanuvchisi	Agar ariza-anketa va unga ilova qilingan hujjatlar to’liq bo’lsa, 8.12 punktga o’tiladi. Agar ariza-anketa va unga ilova qilingan hujjatlar to’liq bo’lmasa yoki notug’ri bo’lsa, 11 punktga o’tiladi.
<b>8.11.</b>	IT Foydalanuvchisi	Ariza-anketa statusini «Vozvrat (ne xvataet dokumentov)»ga o’zgartiradi. Bu haqda Arizachiga sms xabarnoma yuboriladi.
<b>8.12.</b>	IT Foydalanuvchisi	Sug’urtaning ushbu turi uchun sug’urta qoidalariga muvofiq monitoring o’tkazish zarurati haqida qaror qabul qilinadi. Agar monitoring talab etilsa, 8.13 punktga o’tiladi. Agar monitoring talab etilmasa, 8.16 punktga o’tiladi.
<b>8.13.</b>	IT Foydalanuvchisi	Ariza-anketa statusi «Trebuetsya monitoring»ga o’zgartiriladi. Bu haqda Arizachiga sms xabarnoma yuboriladi.
<b>8.14.</b>	IT Foydalanuvchisi	IT foydalanuvchisi arizasiga telefon qiladi va monitoring tafsilotlari to’g’risida kelishib oladi va ularni amalga oshiradi.
<b>8.15.</b>	IT Foydalanuvchisi	Ariza-anketa bo’yicha monitoring statusi «Uspeshno»ga o’zgartiriladi. Bu haqda Arizachiga sms xabarnoma yuboriladi.

<b>8.16.</b>	IT Foydalanuvchisi	Agar ariza-anketa to'g'ri to'ldirilgan va kerakli barcha ma'lumotlar mavjud bo'lsa, ariza statusi «Ojidaetsya oplata (anketa odobrena)»ga o'zgartiriladi va bu haqda Arizachiga sms xabarnoma yuboriladi.
<b>8.17.</b>	Arizachi	«Ojidaetsya oplata (anketa odobrena)» sms xabarnomasini Arizasi olgandan so'ng sug'urta mukofotini qay tartibda to'lash bo'yicha qaror qabul qiladi. Agar to'lov elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshirilsa, 8.21 punktga o'tiladi. Agar to'lov bank orqali amalga oshirilsa, 8.18 punktga o'tiladi.
<b>8.18.</b>	Arizachi	Sug'urta mukofoti bank orqali to'lanadi.
<b>8.19.</b>	IT Foydalanuvchisi	IT foydalanuvchisi ariza-anketa bo'yicha filial hisob raqamiga kelib tushgan sug'urta mukofotini tekshiradi.
<b>8.20.</b>	IT Foydalanuvchisi	IT Foydalanuvchisi ariza-anketa statusini «Oplata proizvedena»ga o'zgartiradi va bu haqda arizachiga sms xabar beriladi.
<b>8.21.</b>	Arizachi	Arizachi tomonidan sug'urta mukofoti elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshirilganda to'langan summa Kompaniyaning oraliq hisob raqami (EPOS) yo'naltiriladi. Elektron to'lov tizimi orqali Arizachi tomonidan to'lov amalga oshirilganga ID anketa talab etiladi. To'langan summa Arizachi tomonidan ITga yuboriladi va ITda sug'urta mukofotini to'lash imkoni yuzaga keladi.
<b>8.22.</b>	Arizachi	IT orqali sug'urta mukofoti uchun to'lov amalga oshiriladi.
<b>8.23.</b>		Ariza-anketa statusi «Oplata proizvedena»ga o'zgartiriladi va bu haqda Arizachi sms xabardor etiladi.
<b>8.24.</b>	IT Foydalanuvchisi	To'langan ariza-anketa bo'yicha sug'urta polisi rasmiylashtiriladi, shuningdek, zarur ma'lumotlar «Straxovoy portfel» va «OSAGO» ma'lumotlar bazasiga kiritiladi.
<b>8.25.</b>	IT Foydalanuvchisi	Ariza-anketa statusi «Polis gotov»ga o'zgartiriladi va bu haqda arizachiga sms xabar yuboriladi.
<b>8.26.</b>	IT Foydalanuvchisi	Polisni etkazib berish arizachi tomonidan tanlangan usulda etkazib beriladi. Polis rasmiylashtirilgandan so'ng bir soat ichida Foydalanuvchi Arizachiga telefon qilib polisni etkazib berish joyi va vaqtini kelishadi.